

Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (BT) yo'nalishi

1-kurs magistranti

PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya: Pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish jarayonida innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchilardan nafaqat an'anaviy metodlarni, balki yangi pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullar va kreativ ta'lim yondashuvlarini qo'llashni talab qiladi. Ushbu maqolada innovatsion pedagogik yondashuvlarning mohiyati, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llari va pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishga oid tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik qobiliyat, innovatsion yondashuv, zamonaviy ta'lim, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, kreativ ta'lim, kasbiy mahorat, o'qituvchi kompetensiyasi.

Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, har tomonlama kompetentli, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga olib chiqish muammolariga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsion jarayon vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "...Yosh avlodni barkamol, ma'naviy va jismonan sog'lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalash, ularni mustakil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bulib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz." [1], degan fikrlari yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, pedagogika sirlarini o'rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lim jarayonida ko'ndalang bo'lib turibdi.

Ko'rinib turibdiki, bugungi kun ta'limi oldida turgan asosiy vazifa bu ta'lim oluvchilarga bilim berish bilan birga ularda hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirish hamda zaruriy kompetentlikka ega bo'lishlarini ta'minlashdan iborat. Ushbu talablarni sifatli amalga oshirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ma'lumki, har bir zamonaviy sifatli ta'lim avvalo insonda kommunikativ kompetensiyaning shakllanganligi bilan baholanadi. Demak, ta'lim jarayonida pedagogning mahorati asosida o'quvchi bilan kommunikativ munosabatlarni yangi bosqichga o'tishi quyidagilarni talab etadi:

- o'qituvchi va o'quvchining o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan kommunikativligini ta'minlash;
- o'qituvchi va o'quvchilardagi kommunikativ munosabatlar uzluksiz ta'lim tizimining alohida bir pog'onasi ekanligini bilish;
- tezkor axborotlar hajmining uzluksiz kengayib borishi o'qituvchi bilan o'quvchilar kommunikativ munosabatlar shakllariga o'zgartirishlar kiritishga ehtiyojni e'tiborga olish;
- o'qituvchining shaxsiy sifatlari, kasbiy bilimdonligi, pedagogik mahoratiga qo'yiladigan mezon va talablarni bilish va o'z ustida muntazam ishlash;
- o'quvchilarning dunyoqarashi, qiziqishi va qobiliyatini, ehtiyojlarini inobatga olib ish jarayonini tashkil etish;
- ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi bilan o'quvchilar kommunikativ munosabat usullariga ilmiy asoslangan holda o'zgartirishlar kiritib borish;
- o'qituvchining nutq madaniyati, muomala odobi, shaxslararo muloqotga kirishishi, o'z-o'zini boshqarishi, muammoli vaziyatlarda yechim topa olishi, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilar.[2; 432-b]

Pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning yana bir muhim omili - bu turli xil muloqot uslublari va vaziyatlariga ta'sir qilishdir. Bu kitoblar, filmlar va yangiliklar maqolalari kabi ommaviy axborot vositalarining turli shakllari bilan shug'ullanish, shuningdek, turli kelib chiqishi va madaniyatiga ega bo'lgan shaxslar bilan muloqotni o'z ichiga olishi mumkin. O'zimizni turli xil muloqot uslublari bilan tanishtirish orqali biz tilning turli kontekstlarda qanday ishlatilishi va talqin qilinishi haqidagi tushunchamizni kengaytirishimiz mumkin. Bundan tashqari, texnologiya o'rta maktab o'quvchilari sifatida qanday muloqot qilishimizni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, xabar almashish ilovalari va videokonferensaloqa vositalari kabi platformalar bizning kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi, bu bizga real vaqtda va uzoq masofalarda boshqalar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Texnologiyadan aloqa vositasi sifatida foydalanish orqali biz raqamli asrda o'zimizni samarali ifoda etish qobiliyatimizni yanada rivojlantirishimiz mumkin.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni zamonaviy ta'lim talablariga mos holda shakllantirishdir. An'anaviy ta'lim metodlari o'quv jarayonida samarali natijalar berishi mumkin, ammo innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik qobiliyat va uning ahamiyati

Pedagogik qobiliyat – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularga bilim berish va tarbiyalash jarayonida ilg'or metodlardan foydalanish qobiliyatidir. Zamonaviy o'qituvchi quyidagi asosiy pedagogik qobiliyatlarga ega bo'lishi lozim:

Didaktik qobiliyat – murakkab bilimlarni oson va tushunarli shaklda yetkazish.

Tashkiliy qobiliyat – o'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish.

Kreativ qobiliyat – innovatsion va ijodiy yondashuvlarni qo‘llash.

Psixologik qobiliyat – o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish va ularning ehtiyojlariga mos yondashish.

Kommunikativ qobiliyat – samarali muloqot o‘rnatish va o‘quvchilar bilan yaqin aloqa qilish.

Ushbu qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar katta ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar

Zamonaviy ta‘lim jarayonida innovatsion yondashuvlar o‘qituvchi va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydi, o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Quyida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishda qo‘llanilayotgan asosiy innovatsion yondashuvlar keltirilgan:

1. Interfaol ta‘lim metodlari

Interfaol usullar o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etishga yordam beradi. Bularga quyidagilar kiradi:

Klaster usuli – o‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘lib, birgalikda muammolarni hal qilish.

Rol o‘yinlari – turli vaziyatlarni sahnalashtirish orqali bilimlarni mustahkamlash.

“Aqliy hujum” – muayyan mavzu bo‘yicha erkin fikr bildirish orqali kreativ tafakkurni rivojlantirish.

2. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) dan foydalanish

Raqamli texnologiyalar ta‘lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan:

Elektron darsliklar va platformalar – masofaviy ta‘lim imkoniyatlarini kengaytiradi.

Interaktiv doskalar – dars jarayonini yanada jonli va qiziqarli qiladi.

Virtual laboratoriyalar – ilmiy tajribalarni onlayn shaklda bajarish imkonini beradi.

3. Differensial va individual yondashuv

Har bir o‘quvchining bilim darajasi va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularga mos ta‘lim berish samaradorlikni oshiradi. Bu usul o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib, ularga individual yondashish imkonini beradi.

4. Muammoli ta‘lim

Bu metod o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. O‘qituvchi muayyan muammoni qo‘yadi va o‘quvchilar uni yechish yo‘llarini izlaydilar. Bu usul mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. STEAM-ta'lim yondashuvi

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi fanlararo bog'liqlikni kuchaytirib, amaliy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, balki ularni hayotda qo'llash imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.[3; 435, 438-b]

Bu bevosita pedagogik faoliyatni zamon talablaridan kelib chiqib, yo'lga qo'yish masalasiga ham daxldordir.

Zero, bugun ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik faoliyatga har qachongidan ham ko'proq zaruriyat tug'ilyapti. Bu darslarni samarali o'tish, vujudga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni oqilona hal etish imkonini beradi. Binobarin, ta'lim xodimi – eng avvalo, innovator “xavfsiz sinovlar o'tkazish” psixologiyasining bilimdoni bo'lishi kerak.

O'qituvchini aniq maqsadni ko'zlagan holda innovatsion faoliyatga tayyorlash – bu yaxlit, bir butun jarayon. U o'zaro bog'liq va bir-biri bilan shartlangan davrdan tashkil topgan: oliy ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalash, shuningdek, maxsus muassasalarda o'qish va maktabdagi amaliy pedagogik faoliyatning o'zaro almashib kelishi asosida tashkil qilingan. Qayd etib o'tilgan davrlarni pedagog shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishning yaxlit jarayoniga birlashtirilishi – uni innovatsion faoliyatga kiritishning asosidir.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash konsepsiyasini yaratishda o'qituvchi shaxsini shakllantirishning bir butun jarayonini loyihalashni va faoliyat olib borishini ta'minlovchi tizimli, refleksiv-faoliyatli, individual-ijodiy yondashuvlar asos qilib olinadi.

Masalan, tizimli yondashuv jihatdan – pedagogik ta'limning barcha bo'g'inlari innovatsion faoliyatning barcha komponentlarini ularning yaxlitligida yuzaga chiqishini maksimal darajada rag'batlantirishi kerak.

Refleksiv-faoliyatli yondashuvni amalga oshirish esa o'qituvchining o'z faoliyatiga nisbatan, faoliyat subyekti sifatida o'quvchi shaxsini rivojlantirish borasidagi samaradorligini tanqidiy tahlil etish, mulohaza qilish va uni baholash maqsadida o'ziga nisbatan ham faol tadqiqiy mavqeiga kirishish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Individual-ijodiy yondashuv o'qituvchida ijodiy individuallikni aniqlash va shakllantirish, unda innovatsion ongni rivojlantirishni takrorlanmas faoliyat texnologiyasini ta'minlovchi shaxsiy darajaga olib chiqadi.

Pedagogni innovatsion faoliyatini yo'lga qo'yish obyektiv voqelikni qabul qilishdagi qarashlarini aniqlab beradi. Pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosi ma'lum maqsadlarga bo'ysunuvchi bir necha o'zaro aloqador va funksional komponentlarni o'z ichiga olgan tizim sifatida ifodalanishi mumkin.

O'qituvchining innovatsion tayyorligi uzluksiz ta'lim sharoitida pedagogik innovatikaning to'liq mazmun-mohiyatini egallash bo'yicha uning nazariy, amaliy va psixologik-fiziologik saviyasidir. Bunday tayyorlik pedagogik tizim natijasi sifatida nazariya va amaliyotning bir butunligini ta'minlash, o'quv ishlariga vijdonan munosabatda bo'lishni tarbiyalash hamda ijodiy faollikni rivojlantirish asosida o'quvchilarda ma'lum fanlar, umumkasbiy faoliyat ko'rinishlari bo'yicha bir butun bilimlar va malakalarni shakllantirishga ko'mak berishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlar, AKT, differensial yondashuv, muammoli ta'lim va STEAM texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarga zamonaviy va samarali darslarni tashkil qilish imkonini beradi. O'qituvchilarning doimiy ravishda o'z ustida ishlashi va innovatsion metodlarni o'zlashtirishi ta'lim sifati va o'quvchilarning bilim darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т: Ўзбекистон, 2016
2. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: darslik / mualliflar jamoasi; ed. Bordovskoy N.V. - 2-nashr, o'chirilgan - M.: KNORUS, 2011. - 432 b.
3. Aminova, S., & Qurbonova, U. (2022). The Role Technology Plays In The Knowledge Creation Process. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 435-439.
4. Zaxarova, I.G. Ta'limda axborot texnologiyalari: oliy ta'lim uchun darslik. darslik muassasalar / I.G. Zaxarov. - M.: "Akademiya", 2008., 338-bet.
5. Oliy ta'limda faol va interaktiv ta'lim texnologiyalari (darslarni o'tkazish shakllari): darslik / komp. T.G. Muxin. - Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013. - 97 p.